

OILADA O'SMIRLAR IJTIMOYIY ROLINI SHAKLLANISHINING GENDER XUSUSIYATLARI

Mirvaliyeva Maxliyo Yoqubjon qizi

Oila va gender ilmiy-tadqiqot institute tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'smirlik, o'smirlik davridagi ijtimoiy rol, gender tushunchasi, gender tenglikning kelib chiqishi tarixi o'rganilgan. Gender tenglikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga alohida urg'u berilgan hamda mamlakatimizda gender tenglik masalasi qonun normativ hujjatlari orqali asoslanganligi ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *o'smirlik, ijtimoiy rol, gender, gender xususiyatlar*

So'nggi paytlarda gender tadqiqotlar va izlanishlar zamonaviy fanning eng faol rivojlangan sohalaridan biri bo'ldi. Hozirgacha psixologiyada gender va genderning o'ziga xosligi kabi asosiy tushunchalarning umumiy qabul qilingan ta'riflari aniq mavjud emas. Qadim zamonlardan beri inson nimani chinakam erkak va nima ayol ekanligi, birinchisining maqsadi nima, ikkinchisi nima ekanligi bilan qiziqqan. Ushbu savollarga javob izlashga Platonning asarlari misol bo'la oladi. Eng qadimiy mifologik tuzilmalarda va ilk falsafiy tizimlarda erkak va ayol o'rtasidagi farqlarni tushuntirishga urinishlar bo'lib, unda jinsiy farqlarning tabiati, ayol anatomiyasi, fiziologiyasi, psixologiyasi, homiladorlik va tug'ilish, erkak va ayolning xususiyatlari haqida eng boy g'oyalar mavjud edi.⁹

O'smirlik tushunchasi hamda o'smirlik davri inqirozli va og'ir davrlardan biri bo'lib, aynan gender xususiyatlar mana shu davrdan boshlab shakllanadi. Gender — bu shaxsning jamiyatdagi xatti-harakatlari va bu xatti-harakat qanday idrok etilishini belgilaydigan ijtimoiy jins. Gender erkaklar va ayollar o'rtasidagi biologik farqlar bilan bog'liq bo'lgan madaniy va ijtimoiy ma'nolarni bildiradi, ular mos ravishda erkaklik va ayollik bilan tavsiflanadi. Gender ta'lim, kasbiy faoliyat, hokimiyatni boshqarishga kirish uchun individual imkoniyatlarni belgilaydigan ijtimoiy mavqeni tavsiflaydi. Keng ma'noda gender shaxsning biologik jinsi, uning tarbiyalangan jinsi yoki jamiyatda shakllangan jinsi bilan mos kelishi shart emas. „Gender“ tushunchasining paydo bo'lishi jinsning biologik xususiyatdan ijtimoiy-psixologik xususiyatga aylanishi bilan bog'liq. „Gender“ atamasi fanga birinchi marta psixoanalitik R. Stoller tomonidan 1958-yilda kiritilgan. R.Stoller D.Moni bilan birgalikda biologik jins va ijtimoiy jins kabi tushunchalar orasidagi farqlarni kiritdi. 1963-yilda Stokgolmda bo'lib o'tgan psixoanalitiklar kongressida so'zlagan nutqida R.Stoller ijtimoiy-jinsiy (gender) o'z-o'zini anglash tushunchasi haqida ma'ruza qildi.¹⁰ Gender bilan bog'liq masalalarni o'rganishda biologik va madaniy komponentlarni ajratish taklifi zamonaviy gumanitar bilimlarda alohida yo'nalish — gendershunoslikning shakllanishiga sabab bo'ldi.

⁹ Eng qadimiy mifologik tuzilma, Platon qarashlaridan

¹⁰ R.Stoller 1963-yilda Stokgolmda bo'lib o'tgan psixoanalitiklar kongressida so'zlagan nutqidan

Keyinchalik gender tushunchasi 1950-1960-yillarda ijtimoiy fanlar vakillari tomonidan rivojlantirildi. XX-asrda bu atama erkaklar va ayollarning xulq-atvori va shaxsiyatida uchraydigan farqlarning ijtimoiy va madaniy shart-sharoitlarini ta'kidlash zarur bo'lgan hollarda qo'llaniladi. „Gender“ atamasi „tur“ va „jins“ kabi toifalarga qarshi edi. Bu toifalar tabiiy va barqaror. Gender jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va yaratilgan. Agar jins tushunchasi ayol va erkak o'rtasidagi jismoniy, tana farqlari bilan bog'liq bo'lsa, unda „gender“ tushunchasi ularning psixologik, ijtimoiy va madaniy xususiyatlariga ta'sir qiladi. Jins va gender o'rtasidagi farq juda muhim, chunki ayollar va erkaklar o'rtasidagi ko'plab farqlar tabiatda biologik bo'lmagan sabablarga bog'liq. Agar shaxsning jinsi biologik jihatdan aniqlangan bo'lsa, gender madaniy va ijtimoiy jihatdan belgilanadi.

Gender lotincha genus (inglizchada gender) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'zbek tilida jins ma'nosini beradi. Fanga genderlik tadqiqotlari tushunchasi XX asr o'rtalarida kirib kela boshladi. Gender terminini 1952-yilda Yangi Zelandiyalik ruhshunos olim Jon Mani o'z ilmiy tadqiqotlarida birinchi qo'llagan. Keyinchalik 1963-yilda Stokgolmda ruhshunoslarning xalqaro anjumanida AQShlik olim Robert Stoller jamiyatda ijtimoiy jinsning o'z-o'zini anglash tushunchalari to'g'risidagi ma'ruzasi orqali gender terminini ilm ahliga taqdim etdi hamda jinsni biologik va madaniy turlarga bo'lib o'rganishni taklif qildi. R.Stoller, biologik jinsni (inglizcha sex) biologiya va fiziologiya, madaniy jins (gender), ya'ni genderni ruhshunoslik va jamiyatshunoslik sohalari tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganish maqsadga muvofiq deb hisoblagan. Shuningdek, 1972-yilda ingliz sotsiologi Enn Oukli ham „Jins, gender va jamiyat“ nomli ilmiy ishida bu terminni izohlab o'tgan.¹¹ Gender konsepsiyasi biologik jins bilan (inglizcha – sex) ijtimoiy jins (inglizcha – gender) farqlanishiga hamda jinslar orasidagi ijtimoiy munosabatlar faqat erkaklar va xotin-qizlarning biologik o'ziga xosligi bilan belgilanmasligi, ular o'rtasidagi ijtimoiy rollar fiziologik farqlardan sezilarli ravishda kengligini anglashga qurilgan. Jins anatomik, fiziologik tushuncha, ya'ni individning biologik jinsga oidligini belgilovchi biologik xususiyatlar birligidir. Biroq odamlar o'rtasida yana bir muhim – biologik farqlardan tashqari ijtimoiy rollar, har xil faoliyat turlari, xatti-harakat va psixologik xarakteristika jihatidan ham bo'linish mavjud. Jinsdan farqli o'laroq, gender – psixologik, madaniy va ijtimoiy vositalar bilan shakllanadi. Gender terminining fanga kiritilishi shuni anglashga yordam beradiki, „jamiyatdagi erkaklar va xotin-qizlar rollari ijtimoiy jihatdan tashkil topadi va belgilanadi“. Gender, avvalo erkak va ayol, o'g'il va qiz bolalar munosabatlarining ijtimoiy-psixologik hamda pedagogik tomonlarini qamrab oladi. Bu tushuncha yangi ijtimoiy qarashlar va madaniyatga bog'liq holda rivojlanib boradi. Tarixdagi patriarxat yoki patriarxat tushunchalari ham bunga yaqqol misoldir. Ta'lim-tarbiya yo'nalishida gender tushunchasi faqat qizlarga taalluqli emas, chunki u o'z xususiyatiga ko'ra o'g'il va qiz bolalar orasidagi munosabatlarni tavsiflab ta'riflaydi, ya'ni, ijtimoiy rollar, faoliyat shakllarining bo'linganligi, xatti-harakat va individlarning psixologik

¹¹ 1972-yilda ingliz sotsiologi Enn Oukli ham „Jins, gender va jamiyat“ nomli ilmiy ishidan

xarakteristkalarida o'ziga xosliklar mavjudligini o'rganadi. Ko'rinib turibdiki, olimlarning gender so'zini termin sifatida o'rganishni taklif qilishlari nafaqat psixoanalitika yoki jamiyatshunoslik, balki turli sohalar, jumladan pedagogika va tilshunoslikda ham keng qo'llanishiga yo'l ochib berdi. Bugungi kunda bu yo'nalishlar tarkibida gender pedagogikasi va tilshunosligi shakllanib, gender munosabatlari, gendercha tahlil, gendercha tenglik kabi mavzularda tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ma'lumki, biologik va ijtimoiy xususiyatlardan tashqari gender omillarga madaniy xususiyatlar ham ta'sir ko'rsatadi. Muayyan madaniyat insoniyat tomonidan dunyo haqidagi bilimlarni anglash va tartibga solish davomida vujudga kelgan narsa predmet, voqeliklar bo'lib, u milliy gender qarashlar shakllanishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Genderchilikda gender farqlarning tashkil topish jarayoni odatda ijtimoiylashtirish jarayoni bilan bog'lanadi. Ijtimoiylashtirish – bu, individ tomonidan jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida faoliyat yuritish imkonini beruvchi bilim, me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonidir. Ijtimoiylashtirish o'z ichiga ta'sir etishning ijtimoiy nazorat qilish jarayonlarini qamrab oladi. Masalan, ta'lim-tarbiya, yoki uning shakllanishiga ta'sir qiluvchi tabiiy jarayonlar. Bugun ijtimoiylashtirishning muhim qismi bo'lgan gender munosabatlar psixologiya, sotsiologiya, pedagogika kabi fanlar tomonidan jadal o'rganilayotganligi bu yo'nalishda qilinishi kerak bo'lgan ishlar ko'pligidan darak beradi. Genderning sotsiumdagi rollaridan kelib chiqadigan ijtimoiy tabaqalanish, va ayni paytda nutq, uslub, kiyim va xatti-harakatlarda namoyon bo'luvchi jihatlar ham bu yo'nalishning muhim sifatlarini tashkil etadi. Gender rollar erkaklar va ayollarning mehnati, vazifalariga doir qarashlarning bo'linishida ham namoyon bo'ladi. So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasida ham ayollarning boshqaruv organlariga tayinlanishiga bo'lgan e'tiborning o'sishi yuqorida ta'kidlangan sotsial tenglik balansini me'yorga keltirmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonunining 13-moddasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha tadbirkorlik subyektlarining, shuningdek, fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarning va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarinig vakillari ishtirokida maslahat kengashlarini tuzish mumkinligi belgilangan. Mazkur normaga asoslanib, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligida, shuningdek, barcha oliy ta'lim muassasalarida tuzilgan xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha maslahat kengashi – gender tenglikni ta'minlashning samarali mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha maslahat kengashi – gender tenglikni ta'minlash hamda jinsi bo'yicha bevosita yoki bilvosita kamsitilishini bartaraf etish maqsadida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha tuzilgan kollegial maslahat organi hisoblanadi. Maslahat kengashining faoliyati qonuniylik, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, jinsi bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymasligi, ochiqlik va shaffoflik tamoyilari asosida olib

boriladi. Xususan, O'zbekistonda ijtimoiy hayotda gender masalalari, gender tenglik munosabatlari berilayotgan chuqur e'tiborni amalga oshirilayotgan qator loyihalarda ko'rish mumkin. Masalan, 2019-yil 2-sentabr, O'RQ-562-sonli "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonunning qabul qilindi, unga ko'ra, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, onalik, otalik va bolalikni himoya qilish tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning erkaklar bilan teng ravishda ijtimoiy va ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish yuzasidan va hk. chora-tadbirlar olib borilmoqda. Shu qatorda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanishning Beshinchi maqsadi – Gender tenglikni amalga oshirish doirasida O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga oid to'qqizta vazifa ishlab chiqilgagini ham ta'kidlash mumkin. U 2030-yilga kelib barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to'liq va samarali ishtirokini ta'minlash va yetakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni yaratish zarurligini o'z ichiga oladi. Gender munosabatlarda xalqaro standartlarga haqiqiy yaqinlashuvga erishish, eng muhimi, ayollarni jamiyatning barcha jabhalarida faol ishtirok etishi uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash bo'yicha qator oddiy, ammo samarali chora-tadbirlar mavjudligini ta'kidlash mumkin. Mamlakatimizda, kvota tizimining ayollarga yo'naltirilganligining ortib borayotganligini, ayniqsa, oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan voqeliklar, magistraturaga qabul qilingan xotin-qizlarga kontrakt to'lovlarini to'liq davlat tomonidan qoplanishi haqidagi amaliy chora-tadbirlarni yaqqol misol tariqasida keltirish mumkin. Shuningdek, xotin-qizlarning mahalliy darajada va ijroiya hokimiyatida vakilligining oshib borishi, ularning parlament faoliyatidagi faol ishtirokini ham ta'kidlash zarur. Xulosa qilib aytganda, davlatimizda gender siyosatining muhim strategik maqsadi millat oilasida xotin-qizlarning o'rni, ularning moliyaviy ahvolini va ijtimoiy farovonligini yaxshilashga qaratilgan. Oilada gender tengligiga erishish, ya'ni ayol kishini kamsitilishi kabi illatlarni yo'qotishga erishish turli ijtimoiy institutlar va sohalarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga olib keladi. Ta'kidlash kerakki, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning kuchayishi kundalik hayot va mehnat faoliyati sohasidagi gender munosabatlariga yetarlicha e'tibor bermaslik bilan ham bog'liq. Zero, gender tenglikka erishish nafaqat demokratik qadriyatlardan biri, balki ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi. Jahon miqyosida orttirilgan tajriba shundan dalolat beradiki, aynan erkaklar va ayollar uchun teng imkoniyatlar mavjud davlatlarda aholi turmush farovonligi va ijtimoiy-siyosiy faoligi yuqori darajada bo'lib, islohotlar muvaffaqiyati ta'minlanadi. Umuman olganda, O'zbekistonda gender sohasidagi o'zgarishlarning huquqiy va institutsional asoslari yaratildi. Mamlakatda gender siyosatini har jihatdan amalga oshirishda davlat organlari va xotin-qizlar tashkilotlari birgalikda harakat qilib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Platon. *Sobr. s.*: 4 jildda — T. 3. — M.: Fikr, 1994. — 477 b.
2. ↑ Ilyenkov, E. V. *Falsafa va madaniyat [Matn]* / E. V. Ilyenkov. — M.: Politizdat, 1991. — 374 p. \Ilyenkov, E. V. *Shaxs nima [Matn]* / E. V. Ilyenkov. — M.: Politizdat, 1984. — 358 p.
3. ↑ Kletsina, I.S. *Gender munosabatlari psixologiyasi. Nazariya va amaliyot [Matn]* / I. S. Kletsina. — Sankt-Peterburg: Aleteyya, 2004. — 408 p.
4. ↑ Gapova, E. *Gender nazariyasi antologiyasi [Matn]* / E. Gapova. — Minsk.: Propylaea, 2000. 8 — 9 p.
5. ↑ Fyedyeralnoye agyentstvo po obrazovaniyu GOU VPO "Krasnoyarskiy gosudarstvyenniy pyedagogicheskiy Univversityet im. V.P. Astafeva "\J.G. Duskaziyeva\Gyendyernaya psixologiya\Uchebnoe posobie
6. Mirvaliyeva, M. (2022). OILADAGI SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA SHAXS AGRESSIVLIGI MUAMMOSI. FRANCE International Scientific-Online Conference.: <https://doi.org/https://doi.org/10.5281/zenodo.651889>
7. Tursunboyev Bunyodjon Rustamjon o'g'li, & Mirvaliyeva Maxliyo Yoqubjon qizi. (2023). XULQI OG'ISHGAN BOLALAR PSIXOLOGIYASI . ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 16(1), 30–37. Retrieved from <https://newjournal.org/index.php/01/article/view/3779>
8. Статьи в Академии
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ЧУВСТВА ПАТРИОТИЗМА У МОЛОДЕЖИ
(<https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=4578034647122035804&btnI=1&hl=ru>) ГР Мансурова, МЕ Мирвалиева, БР Турсунбоев - Редакционная коллегия, 2022
9. Mirvaliyeva, M. (2021). O'SMIRLAR SOTSIAL STATUSINI SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR. MARKAZIY HARBIY OKRUG HUZURIDAGI "ILMIY TADQIQOT" ILMIY-AMALIY VA USLUBIY MARKAZI.
10. Mirvaliyeva, M. (2023). TA'LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING RIVOJLANISHI. TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI.
11. Mirvaliyeva, M. (2022). ADDIKTIV XULQ PSIXOLOGIYASI. Namangan Davlat Universiteti.